



XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA ZO'RLIK ISHLATIB SODIR QILINADIGAN TALON-TAROJ JINOYATLARINI KVALIFIKASIYA QILISH MASALALARI

Saliyev Otabek Ilxom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi magistraturasi bitiruvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13762638>

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, talon-taroj qilish, aybdor, bosqinchilik, xavfli retsidiv jinoyat.


Xorijiy jinoyat qonunchiligida zo'rlik ishlatib talon-taroj qilish uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash kerakki, bosqinchilik va talonchilik uchun shaxs hayoti va sog'ligini qo'shimcha ob'ekt sifatida ajratish faqat sovet qonunchiligi merosi ta'siri ostida jinoyat qonunchiligi shakllangan mamlakatlar (asosan, MDH davlatlari) uchun xos belgidir.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda mutlaqo boshqacha yondashuv mavjud bo'lib, unga ko'ra talon-taroj paytida zo'rlik ishlatish har doim bosqinchilik (ingliz tilida "robbery" yoki yuridik jihatdan neytral "heis") sifatida kvalifikasiya qilinadi.

Talonchilikka O'zbekiston qonunchiligida ochiq usulda sodir qilingan o'g'irlik sifatida qaraladi. Ushbu qoida Amerika, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya jinoyat qonunchiligi bilan o'xshashdir, ammo agar biz zo'rlik ishlatib talon-taroj qilishning alohida tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu holda juda katta farqlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda zo'rlik ishlatib talon-taroj qilish uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar mulkni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, unga tajovuz qilish ushbu qilmishning ijtimoiy xavfliligini baholashda asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Agar AQSh Qonunlar to'plami 18-bo'limining 103-bobiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bosqinchilik jinoyati tarkiblarining kvalifikatsiyasi qilmishni sodir etgan sub'ektlarning turlariga qarab ob'ektiv tomondan farq qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, AQSh qonunchiligi O'zbekiston jinoyat qonunchiligida bo'lgani kabi, bosqinchilik o'zganing mulkini zo'rlik yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib tortib olishni nazarda tutadi. Jinoyat hujum boshlangan paytdayoq tugallangan hisoblanadi, bu ham O'zbekiston jinoyat qonunchiligidagi kesik tarkibli bosqinchilik bilan mos keladi. Oddiy bosqinchilik uchun javobgarlik AQSh Qonunlar to'plamining 2111-moddasida belgilab qo'yilgan.





Bosqinchilikning kvalifikasion turlari 2112-2119 – moddalarida belgilab qo'yilgan bo'lib, bankni, pochta yoki pochtachini, temir yo'llarni, tashish vositalarini va boshqalarni talon-taroj qilishni o'z ichiga oladi.

Bankni talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik AQSh Qonunlar to'plamining 2113-moddasi "A" bandi bilan belgilangan bo'lib, ob'ektiv tomondan bu tajovuz joylashgan joyidan qat'i nazar, har qanday kredit muassasasining mol-mulkini "talon-taroj qilishga" qaratilishi bilan kvalifikasiya qilinadi.

Bosqinchilik ob'ektiv tomonining konstruktiv elementi bo'lgan hujum ("assault") AQSh jinoyat huquqida bosqinchilikning kvalifikasion xususiyati sifatida e'tirof etiladi.

AQSh qonunchiliga ko'ra, agar mulk egasi uni tortib olinishiga qarshilik ko'rsatsa va bu qarshilik huquqbuzar tomonidan bartaraf etilsa, bunday qilmishni bosqinchilik deb kvalifikasiya qilish uchun kifoya qiladi (masalan, jinoyattchi jabrlanuvchini urib, narsalari tortib oladi; jinoyatchi ayolning qulog'idan zirakni tortib, uning qulog'i og'rishiga sabab bo'ladi). O'zbekistonda bunday harakatlar, qoida tariqasida, zo'rlik ishlatib sodir qilinadigan talonchilik sifatida kvalifikasiya qilinadi.

Shunga o'xshash, ammo biroz boshqacha konstruksiya Buyuk Britaniya jinoyat qonunchiligida ham keltirilgan. Buyuk Britaniyada talon-taroj uchun javobgarlik 1968, 1978 i 1996 yillardagi "O'g'rilik to'g'risidagi aktlar" va sud presedentlari bilan tartibga solinadi.

1968-yilgi aktning 8-bandiga muvofiq, bosqinchilik o'g'irlikning bir turi hisoblanib, mol-mulkni o'g'irlagan va buni amalga oshirishdan oldin yoki buni amalga oshirishda davomida yoxud buni amalga oshirish maqsadida har qanday shaxsga kuch ishlatgan yoki kuch ishlatish bilan qo'rqitgan yoxud shu harakatlarni amalga oshirishga harakat qilgan shaxs bosqinchilik sodir qilishda aybdor hisoblanadi.

Britaniyalik huquqshunoslarning ta'kidlashicha, zo'rlik yoki zo'rlik ishlatish tahdidi bilan bog'liq har qanday talon-tarojni bosqinchilik sifatida tavsiflash lozim. Xususan, agar shaxs ayolning sumkasini tortib olishga harakat qilsa va ayol qarshilik ko'rsatsa, u bosqinchilikda aybdor deb topilishi kerak (xuddi qurol bilan bankda bosqinchilik sodir etgan kabi). Xuddi shu tarzda, boshqa birovning soatini topib olib, keyin soatni qaytarib berishni talab qilgan egasini urgan kishi bosqinchilikda aybdor deb topiladi. Ushbu xatti-harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan talonchilik (Jinoyat kodeksi 166-moddasi 2-qismining "a" bandi) deb tasniflanadi.





Bundan tashqari ingliz qonunchiligida oddiy, zo'rlik ishlatmasdan sodir etiladigan talonchilik ham o'g'irlik tarkibiga kiritilgan. O'g'irlik ("Theft") tushunchasi nafaqat o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishni, balki o'zganing mulkini ochiqdan ochiq talon-taroj qilishni ham, ya'ni talonchilikni ham qamrab oladi va jabrlanuvchini bu mulkdan abadiy mahrum qilish niyatida "o'zganing mol-mulkni insofsiz o'zlashtirish" deb ta'riflanadi.

Fransiyaning 1992 yilda qabul qilingan yangi Jinoyat kodeksi mulkka qarshi tajovuz qilishning turli shakllarini batafsil tartibga soladi. Fransiyada boshqa odamlarning mol-mulkiga yashirin yoki ochiq, zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan, qurolli yoki qurolsiz egalik qilish bilan bog'liq barcha jinoiy hujum turlari o'g'irlikning yagona konsepsiyasi bilan qamrab olinganligini alohida ta'kidlash zarur.

Bosqinchilik uchun javobgarlik Fransiya Jinoyat kodeksining 311-5 – 311-11-moddalari bilan tartibga solinadi. 311-5-moddaga ko'ra, bosqinchilik shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan o'g'irlik hisoblanadi. Aybdor o'zganing mol-mulkiga egalik qilishga intiladi, shu maqsadga erishish uchun shaxsga ataylab tahdid yaratuvchi usulni tanlaydi, bu tahdidni amalga oshirishga tayyor turadi. Bu konsturksiya O'zbekiston jinoyat qonunchiligiga o'xshab ketadi. Bundan tashqari, Fransiya Jinoyat kodeksining 311-8-moddasiga muvofiq, talon-taroj vaqtida jinoyatchida qurolning mavjud bo'lishi undan foydalanishga tayyorligini ko'rsatadi, bunda qilmish bosqinchilik sifatida kvalifikasiya qilinadi.

Zo'rlik ishlatib talon-taroj qilish uchun javobgarlikni belgilovchi fransuz jinoyat huquqi normalarini baholab, shuni ta'kidlash mumkinki, shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish fakti qilmishning juda katta ijtimoiy xavfliligini belgilovchi mezon sifatida e'tirof etiladi. Bosqinlik talon-tarojning bir turi deb tan olinsa-da, tajovuz ob'ekti, birinchi navbatda, shaxsning hayoti va sog'ligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, fransuz jinoyat qonunchiligida talon-taroj qilingan mol-mulkning qiymatiga qarab bosqinchilik uchun javobgarlikni farqlovchi qoidalar yo'q. Chunki bu qilmishni ijtimoiy xavfli deb topishda inson hayoti va sog'ligiga qilingan tajovuz muhim rol o'ynaydi.

Zo'rlik ishlatib talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik Germaniya Jinoyat qonunchiligida biroz boshqacha tartibga solingan bo'lib, ushbu jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 249-252-moddalarida nazarda tutilgan.

Zo'rlik ishlatib talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik, birinchi navbatda, shaxsga hujumning xususiyatiga qarab farqlanadi, chunki kvalifikasiyaviy






belgilar jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i kabi qo'shimcha ob'ektlarga hujum qilish bilan bog'liq, shuningdek, Germaniya Jinoyat kodeksining 250-moddasi qoidalariga muvofiq, hatto jabrlanuvchining hayotiga haqiqiy tahdid bosqinchilikning kvalifikatsiyaviy belgisi sifatida e'tirof etiladi.

Zo'rlik ishlatib talon-taroj qilishda shaxsga hujum tabiati bilan bir qatorda, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksi qurolning mavjudligi, uyushgan guruh tomonidan hujum sodir qilinganligi, jabrlanuvchining qarshilik bostirish vositalari(masalan, jabrlanuvchini bog'lab qo'yish)dan foydalanilganligi kabi kvalifikatsiyaviy xususiyatlarini nazarda tutadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi 6-sonli "O'zgarlar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
4. Sirin M.A. Osobennosti otvetstvennosti za nasilstvennie xisheniya chujogo imushestva v zarubejnom ugolovnom prave. Mejdunarodniy jurnal gumanitarnix i estestvennix nauk, 2020, 76-b
5. U.S. Code. // [Elektron manbaa]. – <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/part-I/chapter-103>
6. P.Bakunov. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan talon-toroj jinoyatlari. Monografiya. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dos. M.Usmonaliev. -T.: TDYuI nashriyoti, 2011. 332 bet.
7. I.R.Astanov. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o'ziga xos jixatlari: o'kuv qo'llanma.-T. TDYuU, 2015. - 140 b.
8. Usmonaliev M., Bakunov P. Talonchilik uchun javobgarlikni liberallashtirish muammolari: Magistrantlar u-n o'quv qo'llanma/ Usmonaliev M., Bakunov P.; TDYuI; Mas'ul muxarrir: M.X.Rustamboev. - T.: TDYuI, 2007.- 44 b.
9. Code pénal (France) // [elektron manbaa] – <https://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes/country/30/France/show>
10. German criminal code. // [Elektron manbaa]. – https://www.gesetzeim-internet.de/englisch_stgb/





11. Theft Act 1968. // [Elektron manbaa]. –
<http://www.legislation.gov.uk/ukpga/1968/60/contents>

